Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensi... DOI: 10.5281/zenodo.24316834

- ishlab chiqarishni tuzilmaviy-texnologik qayta qurishni jadallashtirish maqsadida markazlashgan kredit resurslarining bir qismini tez qoplaydigan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga qaratish, shu jumladan, kichik biznes ob'ektlariga yo'naltirish;
- investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nokredit usullaridan – lizing, franchayzing, faktoring kabi turlaridan foydalanishni kengaytirish;
- investitsiya siyosatini ishlab chiqarish va amalga oshirishda yirik banklar boshqaruv tizimida o'z tarkibida investitsiya dasturlarining turli masalalari bo'yicha yuqori tajribaga ega bo'lgan xizmatchilardan tashkil topgan investitsiya bo'linmalarini yaratish va boshqalar.

Umumiy holda zamonaviy sharoitlarda investitsion faoliyatni jadallashtirish, uning samaradorligini oshirish uchun moliyalashning turli manbalaridan foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmonining 1-ilovasi «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi».
2. Qosimov M.S. Investitsiya loyihalar tahlili. (Darslik).- T., TDIU, 2019
3. https://xs.uz/uz/post/tizhorat-banklarining-samarali-investitsion-faoliyati-taraqqiyot-va-farovonlikning-muhim-omili
4. T.M.Karaliyev, O.B.Sattarov, I.F.Sayfiddinov Tijorat banklari faoliyati tahlili O'quv qo'llanma. Toshkent-Moliya 2013

DAVLATNING MAQSADLI JAMG`ARLARI VA ULARNING MOHIYATI

Qurbonov Jasurbek Fozilovich,
i.f.f.d, dotsent,
Foziljonov Azimiddin Asildin o'g'li,
TDIU Andijon fakulteti "Bank ishi va audit" yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Davlatning maqsadli jamg`armalari ahamiyati vazifalari tashkiliy-huquqiy asoslar haqida yoritib berilgan. Mamlakat miqyosida turli shakldagi moliyaviy resurslarning darajasi, jamiyatni yanada barqaror rivojlanishida davlat moliya tizimi oldiga qo'yilgan muhim vazifalar aks ettirilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *Byudjet, jamg`armalar, davlat maqsadli jamg`armalari, xizmatlar ko`rsatuvchi ijtimoiy sohani qo`llab-quvvatlovchi jamg`armalar, iqtisodiy maqsadli jamg`armalar, iqtisodiyot yetakchi tarmoq va sohalar, qo`shimcha moliyaviy resurslar.*

Published: 17.05.2024

Cite this article: Qurbonov Jasurbek Fozilovich, Foziljonov Azimiddin Asildin o'g'li (2024). Davlatning maqsadli jamg'arlari va ularning mohiyati. Emro Science and Education, 1(3). https://doi.org/10.5281/zenodo.24316834

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Mamlakat miqyosida turli shakldagi moliyaviy resurslarning yetarlilik darajasi jamiyatni yanada barqaror rivojlanishida, iqtisodiy murakkabliklar va moliyaviy-iqtisodiy tanglik holatlaridan halos etuvchi manba sifatida ham namoyon bo'ladi. Bugungi kunda har qanday davlat moliya tizimi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri – shubhasiz, davlat maqsadli jamg`armalarining faoliyatidan unumli foydalanish hisoblanadi. Umuman olganda, davlat maqsadli jamg’armalari - davlatning alohida xarajatlarini moliyalashtirish uchun mamlakatning byudjet tizimi tarkibiy qismi sifatida jamlanadigan mablag`lar bo'lib, ularning maqsadli yo`naltirilishi ustidan davlat nazoratini ta'minlash maqsadida amaldagi me’yoriy hujjatlarga muvofiq shakllantirilgan jamg`armalardir. Bundan tashqari, iqtisodiy adabiyotlarda, byudjetdan tashqari jamg’larmalarda bir qator o’ziga xos ta’riflar berib o`tilgan. Bu kabi jamg’armalarning iqtisodiy mohiyatini to’laroq ochib berishda taniqli iqtisodchi olimlar o`zlarining fikrlarini bildirib o`tishgan.

Byudjetdan tashqari jamg`armalar - bu ba'zan ijtimoiy ehtiyojlarni moliya bilan ta'minlash uchun davlat tomonidan jalb qilinadigan va operativ mustaqillik asosida kompleks ravishda sarflanadigan moliya resurslarini qayta taqsimlash va foydalanish shaklidir. G`arb mamlakatlarida bundan jamg`armalar soni 30 tadan 80 tagacha yetishi mumkin. Bunda byudjetdan tashqari jamg`armalarning hukumat ta’siridan holiligi va moliyaviy jihatdan mustaqilligiga urg`u berib o’tilgan. Biroq, bu omil davlatning iqtisodiy va siyosiy holatidan kelib chiqqan holda bir biridan farq qilinishi mumkin. Sababi, post industrial davlatlarda bozor iqtisodiyoti deyarli shakllanib bo’lgan hamda moliyaviy institutlar o`z-o`zini mustaqil idora qila oladi. Shuningdek, ular davlatning byudjet-soliq siyosatini yuritishida ham bevosita muhim ishtirokchi hisoblanadilar. Aksincha, bozor iqtisodiyoti hali to`liq shakllanmagan yoki unda davlatning ishtiroki va nazorati saqlanib qolgan davlatlarda bu kabi jamg`amalar bevosita hukumat nazorati ostida faoliyat olib boradilar.

Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari markaziy va mahalliy davlat boshqaruv organlari ixtiyoridagi qat’iy maqsadli xususiyatga ega bo'lgan moliyaviy mablag'lar yig'indisidir. Ular har bir alohida davlat moliya tizimining ajralmas bo'g'ini hisoblanadi. Bu jamg'armalarni moliyaviy mablag'larining shakllanishi, taqsimlanishi va resurslardan maqsadli yo’lda foydalanishi bevosita moliyaviy me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan muvofiqlashtiriladi va tartibga solinadi.

Bugungi kunda, dunyoning juda ko`p davlatlarida idoralar, vazirliklar va ulkan xo`jalik subyektlari ixtiyorida ham ko`plab jamg`armalar tashkil etilgan.Rivojlangan mamalkatlarning ilg`or tajribalariga tayanib aytish mumkinki, odatda, byudjetdan tashqari davlat jamg`armalari shartli ikki yo`l orqali tashkil etiladi. Xususan: 1.Ma'lum bir xarajatlarini davlat byudjetidan ajratiladigan mablag`lar hisobidan muhim umumjamiyat ahamiyatini kasb etuvchi muammolarni hal etish uchun tashkil etiladi. Byudjetdan tashqari davlat jamg`armasini shaxsiy (o`zlik), maxsus ajratma va badallar mablag`lari hisobidan tashkil etiladi. Masalan, qator davlatlarda daromadi cheklangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini moliyavny qo`llab quvvatlash maqsadida davlat byudjeti ko`magida maxsus sotsial sug`urta fondlari tashkil etilgan. Boshqa byudjetdan tashqari davlat jamg`armalarini tashkil etish

muqaddam ma'lum bo`lmagan, ammo ishlab chikarishning rivojlanishi, xizmat kursatish ko`lamini kengayishi va moliyaviy siyosatni o`zgartirish natajasida paydo bo`ladigan muammolarni maqsadli va manzilli bartaraf etish maqsadida amalga oshiriladigan. Shunday vaziyat shakllanganda hukumat byudjetdan tashkari davlat jamg`armasini tashkil etish uchun maxsus qaror qabul qiladi. Bizda ham yuqorida qayd etilgan vaziyatga o`xshash holat vujudga kelishi va mamlakatni ijtimoiy yo`naltirilgan bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o`tishi munosabati bilan 2004-2009 moliya yillarini o’zida qamrab olgan byudjetdan tashkari "Maktab ta'lim jamgarmasi tashkil etildi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab, byudjetdan tashqari davlat jamg`armalari tashkil etish va ularni davr talabidan kelib chiqqan holda davrga moslashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilib kelinmoqda. 2002 - yil moliya yiliga qadar byudjetdan tashqari davlat jamg`armalari muxtor ravishda moliyaviy resurslarini shakllantnrish va ulardan maqsadli yo`nalishlarda 17 foydalanish keng qo`llanib kelinar edi. Ammo ayrim davlatning maqsadli fondlarida o`z vaqtida va to`liqligicha moliviy resurslarni shakllanmaganligi, aholiga berilayotgan va tarqatilayotgan moliyaviy resurslarda kechikish, uzilgan hollari tez-tez uchray boshladi. Buni oldini olish maqsadida 2002 - yildan boshlab ulkan umumjamiyat ahamiyat kasb etuvchi ayrim davlatning maksadli fondlarini O`zbekiston Repsublikasi Moliya vazirligi tasarrufida bo`lishi ma'qul topildi. Keyinchalik, 2013-yil 26-dekabrda mamlakatimiz amaliyotida yangilik bo`lgan “Byudjet kodeksi” qabul qilinishi munosabati bilan, ushbu qonun o`z kuchini yo`qotdi. Ushbu kodeks endilikda, mamlakatimiz byudjet tizmi byudjetlari uchun tayanch huquqiy asosga aylandi. Shuningdek, yangi kodeksda byudjet tizimi byudjetlari bilan bog`liq bir qator o`zgarish va qo’shimchalar qayd etildi. Jumladan, davlat maqsadli jamg`armalar tushumchasi bir qator kengayib, huquqiy maqomi mustahkamlandi. Demak, Byudjet kodeksining 6-bobi aynan ”Davlat maqsadli jamg'armalari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari” deb nomlanib, ushbu soha rivoji yo`lida ulkan qadam tashlandi. Endilikda, davlat maqsadli jamg`armalari qatoriga bir qator yangi jamg`armalar qo’shilib, mavjudlarining tashkiliy asosi qaytadan ko`rib chiqildi. Davlat konsolidatsiyalashgan byudjeti tarkibida Davlat byudjeti hamda O`zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi byudjeti bilna bir qatorda Davlat maqsadli jamg`armalari byudjeti alohida ajratib ko`rsatilgan bo’lib, kodeksning 36-moddasida quyidagilar davlat maqsadli jamg`armalari sifatida ko`rsatib o`tilgan: - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi; - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi; - Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar jamg'armasi; - O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi; - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot 18 muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi; - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi; - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

huzuridagi Oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi.5 Kodeksda, shuningdek, har bir davlat maqsadli jamg`armalarining faoliyat sohasi, maqsadi va vazifalari, boshqaruv organi, byudjet loyihasi va hisobotlarini tuzish tartibini, qolaversa, daromadlar manbalari hamda xarajatlar yo`nalishlari bilan bog`liq me’yorlar ko’rsatib o’tilgan.

Davlat maqsadli jamg`armalari iqtisodiyotning ustuvor sohalarini qo`shimcha moliyaviy resurslar bilan ta'minlash hamda har xil maxsus fondlar ko`magida aholiga sotsial xizmatlar ko`lamini kengaytirish kabi vazifalarni bajaradi. Odatda, maqsadli jamg`armalar ijtimoiy maqsadlarga yo`naltirilgan va iqtisodiy yo`naltirilgan jamg`armlarga ajratiladi. Ijtimoiy maqsadli jamg`armalar deganda, aholini hamda unga ijimoiy xizmatlar ko`rsatuvchi ijtimoiy sohani qo`llabquvvatlovchi jamg`armalar tushunilsa, iqtisodiy maqsadli jamg`armalarga esa, iqtisodiyot yetakchi tarmoq va sohalarini qo`shimcha moliyaviy resurslar bilan ta’minlash yoki aloihida tarmoqni yanada rivojlantirish uchun tashkil etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Ahmedov D.Q. Ijtimoiy ta’minot huquqi. Darslik. –T. TDYUI nashriyoti, 2008. 406 бет.
2. Allayorov Sh., Toshmuxamedova D., Davlat pensiya ta’minoti.O‘quv qo‘llanma.-Toshkent, T.:Iqtisod-Moliya 2015.-248 b; 83
3. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition . USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 280.
4. Malikov T., Jalilov P., Byudjet-soliq siyosati. Mongrafiya. T.: Akademnashr, 2011.472 b.
5. Mirzamahmudov M.M. Maqsadli jamg‘armalardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. - T.:«IQTISOD-MOLIYA». 2013.-112 b.;

RAQAMLI XIZMAT TURLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI BANK AKTIVLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH.

Urinov L.A.
TDIU Andijon fakulteti, “Mutaxasislik fanlari” kafedrasi assistenti

Annatatsiya: *Xozirgi vaqtda bizning davlatimizda olib borilayotgan iqtisodiy isloxatlari qatori boshqa sohalar bir qatori bank soxasida xam izchil isloxatlar olib borilmoqda. Bu o‘z navbatida ijobiy natijalar bermoqda. Respublikadagi mavjud iqtisodiy munosabatlar davrida shidadtli raqamli iqtisodiyot rivojlangan bir vaqtda tijorat banklarning moliyaviy vositachilik xizmat turlarini rivojlantirishning asosiy muommolardan biri xisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *Tijorat banklar, innavatsiya, mijoz, bank tovarlari, bank xizmatlari, tijorat banklarning aktiv va passivlari, IT.*